



Nutqiy kamchiliklarning nazariy asoslari

Saipova Hilola Abduhamitovna –

Farg'ona davlat universiteti

“Inklyuziv” ta’lim kafedrası mudiri,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: saipovahilola3@gmail.com | ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-4813-9983>

Bahromova Muazzamxon Abdusalomovna –

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy kamchiliklarning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqiy rivojlanish jarayonida uchraydigan kamchiliklarning psixologik, pedagogik va lingvistik omillari ochib berilib, ularning kelib chiqish sabablari va tasnifi yoritiladi. Fonetik-fonematik, leksik-grammatik hamda nutqning umumiy rivojlanmaganligi kabi nutqiy nuqsonlarning bolaning bilish jarayonlari, muloqot faolligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri tahlil etiladi. Shuningdek, nutqiy kamchiliklarni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlar umumlashtirilib, ularning maxsus pedagogika va logopediya amaliyotidagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqola nutqiy rivojlanish muammolarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, pedagoglar va logoped mutaxassislar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nutq, dislaliya, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish, alaliya, afaziya, ritm, ohang, prosodika.

Теоретические основы речевых недостатков

Аннотация. В данной статье научно анализируются теоретические основы речевых нарушений. Раскрываются психологические, педагогические и лингвистические факторы, влияющие на возникновение нарушений речевого развития, а также освещаются их причины и классификация. Анализируется влияние фонетико-фонематических, лексико-грамматических нарушений и общего

недоразвития речи на познавательные процессы, коммуникативную активность и социальную адаптацию ребёнка. Кроме того, обобщаются теоретические подходы и научные взгляды, применяемые при изучении речевых нарушений, и обосновывается их значение в практике специальной педагогики и логопедии. Статья предназначена для исследователей, педагогов и специалистов-логопедов, занимающихся проблемами речевого развития.

Ключевые слова: речь, дислалия, дизартрия, ринолалия, заикание, алалия, афазия, ритм, тон, просодия.

Theoretical foundations of speech defects

Annotation. This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of speech disorders. The psychological, pedagogical, and linguistic factors influencing the emergence of speech development disorders are examined, along with their causes and classification. The impact of phonetic-phonemic and lexical-grammatical disorders, as well as general speech underdevelopment, on children's cognitive processes, communicative activity, and social adaptation is analyzed. In addition, theoretical approaches and scientific perspectives used in the study of speech disorders are summarized, and their significance in the practice of special pedagogy and speech therapy is substantiated. The article serves as a theoretical and scientific resource for researchers, educators, and speech therapy specialists dealing with issues of speech development.

Keywords: speech, dyslalia, dysarthria, rhinolalia, stuttering, alalia, aphasia, rhythm, tone, prosody.

KIRISH

Nutq – insonning eng muhim kommunikativ vositasi bo'lib, tafakkur, bilish jarayonlari va ijtimoiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Inson nutq orqali o'z fikrini ifodalaydi, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishadi hamda ijtimoiy tajribani egallaydi. Ayniqsa, bolalik davrida nutqning shakllanishi shaxsning aqliy, hissiy-irodaviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Nutqning yetukligi bolaning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati, muloqot faolligi va jamiyatga moslashuv darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Biroq ayrim hollarda nutqning to'liq shakllanmasligi, rivojlanishida kechikishlar yoki turli buzilishlar kuzatiladi. Bunday holatlar nutqiy kamchiliklar sifatida namoyon bo'lib, ular bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy kamchiliklar bolaning bilimlarni o'zlashtirishida, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishida, shuningdek, tengdoshlari bilan muloqotida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Nutqiy kamchiliklar – bu bolaning yoki kattalarning nutq tizimida yuzaga keladigan buzilishlar yoki rivojlanishdagi cheklanishlar bo'lib, ular talaffuz, fonematik eshituv, grammatik tuzilma, lug'at boyligi, nutqning ohangi, ritmi va ma'no jihatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu kamchiliklar natijasida shaxs o'z fikrini aniq, izchil va to'liq ifodalay olmaydi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvi, o'quv faoliyati va kommunikativ imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois nutqiy kamchiliklarning nazariy asoslarini o'rganish, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish maxsus pedagogika va logopediya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy ilmiy manbalarda nutqiy kamchiliklar muammosi tibbiyot, psixologiya, lingvistika va maxsus pedagogika fanlari kesishgan nuqtada tadqiq etilmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida bolalarning taxminan 5–10 foizida turli darajadagi nutqiy kamchiliklar uchraydi. Ushbu statistik ko'rsatkich nutq patologiyalarining keng tarqalganligini, ularni erta aniqlash va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda nutqiy kamchiliklar og'zaki yoki yozma nutqning me'yoriy rivojlanishidan chetga chiqishi sifatida talqin qilinadi. Ular tovushlarni talaffuz qilish, ovoz hosil qilish, nutqning ritmi va tempi, fonematik idrok, lug'at boyligi, grammatik tuzilma hamda nutqni tushunish va ifodalash jarayonlaridagi buzilishlarda namoyon bo'ladi. Nutqiy kamchiliklar kelib chiqish mexanizmlariga ko'ra, asosan, organik va funksional turlarga ajratiladi. Organik nutqiy kamchiliklar markaziy yoki periferik nerv tizimi, nutq apparati yoki eshitish analizatorining anatomik va fiziologik shikastlanishlari bilan bog'liq bo'lsa, funksional kamchiliklar aniq organik nuqsonlarsiz, ko'pincha psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotlar nutqiy kamchiliklarning paydo bo'lishida bir qator o'zaro bog'liq omillar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, biologik omillar miya nutq markazlarining yetarli darajada rivojlanmasligi, eshitish apparati nuqsonlari yoki artikulyatsion apparatdagi anatomik kamchiliklar bilan izohlanadi. Psixologik omillar qatoriga boladagi kuchli stress holatlari, nevrotik buzilishlar, idrok va xotira jarayonlarining sustligi, emotsional beqarorlik kiradi. Ijtimoiy-pedagogik omillar esa noto'g'ri nutqiy muhit, kattalarning nutqiy namunasidagi kamchiliklar, muloqot yetishmovchiligi hamda pedagogik e'tiborsizlik bilan bog'liq.

Biologik sabablar nutqiy kamchiliklarning eng og'ir va barqaror shakllarini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Nutq buzilishlarining shakllanishida irsiy omil muhim o'rin tutadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, oilada nutqiy buzilishlar mavjud bo'lgan hollarda bolada shunday kamchiliklarning paydo bo'lish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Xususan, **FOXP2 geni** nutq va til qobiliyatlarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu gen mutatsiyaga uchraganda nutqning rejalashtirilishi va motor jihatdan amalga oshirilishi buziladi.

Duduqlanish ko'pincha irsiy moyillik bilan bog'liq bo'lib, ota-onalardan birida ushbu nuqson mavjud bo'lsa, bolada duduqlanish ehtimoli 3–4 baravar yuqori bo'lishi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Shuningdek, disleksiya va disgrafiya kabi yozma nutq buzilishlari ham genetik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir oilaning bir necha a'zolarida uchrashi mumkin. Bundan tashqari, onaning homiladorlik davrida o'tkazgan infeksiyon kasalliklari, toksikozlar, tug'ruq jarayonidagi asoratlar va gipoksiya holatlari bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda nutqiy kamchiliklarning quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatiladi: dislaliya – tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish bilan xarakterlanuvchi buzilish; dizatriya – nutq mushaklari innervatsiyasining yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan nuqson; rinolaliya – burun rezonansining buzilishi bilan bog'liq nutq kamchiligi; duduqlanish (logonevroz) – nutqning ritmi va sur'atining buzilishi; alaliya – nutqning to'liq yoki qisman rivojlanmaganligi; afaziya – ilgari shakllangan nutqning turli miya shikastlanishlari oqibatida yo'qolishi.

Nutqiy kamchiliklarni o'rganishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar nutqiy

kamchiliklarning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va ularning ilmiy-pedagogik ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutq kamchiliklari – bu nutqning turli komponentlaridagi buzilishlar natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayon bo‘lib, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Talaffuz bilan bog‘liq xususiyatlar:

Tovushlarni noto‘g‘ri aytish, tushirib qo‘yish yoki almashtirish. Talaffuzdagi xatoliklar bolalarda dislaliya yoki dizartriya holatlarida ko‘rinadi. Nutq tovushlarining aniqligi va tushunarli bo‘lishi kamayadi. Nutq tovushlarini deyarli tushunarli aytib bo‘lmaydi yoki ular noto‘g‘ri aytiladi. Artikulyator organlari (til, lab, tanglay) koordinatsiyasi yetarli emas. Dizartriya yoki og‘ir dislaliya holatida sezilarli buzilish kuzatiladi.

Misol: “s” tovushini “t” deb aytish yoki “r” tovushini to‘liq talaffuz qilmaslik.

Grammatik va leksik xususiyatlar:

So‘z boyligining yetarli emasligi. Gap tuzilmasi va grammatik qoidalarni buzilishi. Nutqning mazmuni va ifodaviyligi kamayadi. Bularning so‘z boyligi juda cheklangan bo‘ladi, gap tuzilmasi va grammatik qoidalar buziladi, nutq mazmuni yetarlicha ifodalanmaydi.

Misol: “Men maktabga ketdim” o‘rniga “Men maktab” deyish, so‘zlarni noto‘g‘ri birlashtirish.

Ritm, ohang va prosodika buzilishi:

Nutqning sur‘ati, urg‘usi va ohangi noto‘g‘ri yoki nomuvofiq. Duduqlanish va logonevroz holatlarida nutq ritmi to‘xtab-turib yoki tezlashib ketadi. Prosodika buzilishi nutqni tushunishni qiyinlashtiradi. Nutqning urg‘u, ritm va sur‘ati buziladi. Duduqlanish yoki logonevroz natijasida nutq sekin, to‘xtab-turib yoki tezlashib ketadi. Prosodika buzilishi nutqni eshlash va tushunishni qiyinlashtiradi.

Misol: So‘zlarni bir tekislikda yoki noto‘g‘ri urg‘u bilan aytish.

Fiziologik va motor xususiyatlar:

Nutq mushaklarining faoliyati yetarlicha koordinatsiyalanmagan bo‘ladi (til, lab, tanglay). Artikulyator harakatlari sust yoki nomuvofiq bo‘lishi mumkin. Mushak faolligi buzilishi nutq tovushlarining noto‘g‘ri hosil bo‘lishiga olib keladi.

Misol: Dizartriya davrida tovushlarni chiqarish mushak koordinatsiyasi yetarli bo‘lmaydi.

Funksional va kommunikativ xususiyatlar:

Nutqning muloqot vazifasini bajara olmasligi. Bolaning ijtimoiy moslashuvi va o‘zini ifoda etish qobiliyati pasayadi. Nutq kamchiliklari bolaning o‘qish, yozish va muloqot jarayonlariga salbiy ta‘sir qiladi. Nutq orqali o‘z fikrini ifodalash qiyinlashadi. Bola yoki kattalar ijtimoiy muloqotga cheklangan tarzda kiradi. Ta‘lim jarayoni va kundalik hayotdagi faoliyatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Misol: Bolaning do‘stlari bilan muloqotda qiyinchilikka duch kelishi yoki savollarni to‘liq tushuntira olmasligi.

XULOSA

Nutq kamchiliklari inson nutq tizimida yuzaga keladigan murakkab buzilishlar bo‘lib, ular nafaqat talaffuz va grammatik tuzilmani, balki so‘z boyligi, ritm, ohang va artikulyator harakatlarni ham qamrab oladi. Ushbu kamchiliklar bolaning yoki kattaning muloqot qobiliyatiga, ijtimoiy moslashuviga va psixologik rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Nutq kamchiliklarini tushunish va ularni tuzatish jarayoni biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Shu bois logopedik, nevropsixologik va psixolingvistik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ogʻir nutq nuqsonlarida talaffuz, motor koordinatsiya va prosodika bilan bogʻliq buzilishlar bir vaqtda namoyon boʻlib, individual yondashuvni zarur qiladi. Shu bois, logopedik mashgʻulotlar, artikulyator va motor mashqlari, shuningdek, zamonaviy oʻyin texnologiyalari va interaktiv metodlar nutqni tuzatishda samarali vositalar sifatida ishlatiladi.

Kelajakda nutq kamchiliklarini aniqlash va tuzatishda ilm-fan va texnologiyalarni qoʻllash, diagnostik vositalarni takomillashtirish va individual yondashuvni kuchaytirish asosiy yoʻnalish boʻlib qoladi. Shu bilan birga, nutq kamchiliklarini barqaror va samarali bartaraf etish shaxsning ijtimoiy, pedagogik va psixologik rivojlanishini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, nutq kamchiliklarini aniqlash va tuzatish ilmiy asoslangan yondashuvni, individual metodlarni va zamonaviy texnologiyalarni talab qiladigan murakkab jarayondi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. N.Levina Logopediya asoslari.- Moskva:Prosveshcheniye, 2015.- 320 b.
2. T.Filicheva Nutq buzilishlarini korreksiya qilish metodikasi.- Sankt-Peterburg: Rech, 2018.-256 b.
3. Vygotskiy,L.S. Psixologiya va nutq rivojlanishi. Moskva: Pedagogika, 2017.432b
4. A.Luriya, Nevropsixologiya va nutq buzilishlari.- Moskva: Nauka, 2014.–380 b.
5. L.Shriberg, R.Kent, Speech Disorders in Children: Assessment and Intervention.- San Diego: Plural Publishing, 2013.–420 p.
6. S.McLeod, and E.Baker, Children’s Speech: An Evidence-Based Approach to Assessment and Intervention, –2018.
7. P.Prelock, and T.Hutchins Clinical Guide to Assessment and Treatment of Communication Disorders. Springer. SpringerLink, –2018.
8. R.Paul, and C.Norbury Language Disorders from Infancy Through Adolescence. 5-chi tahrir. Elsevier. ScienceDirect, –2020.
9. S.McLeod, S.Verdon, and N.McGill, “Assessment and intervention for children with speech sound disorders”. –2022
10. K.Murrell, Navigating Speech Sound Disorders in Children: 50 Essential Strategies and Resources. Routledge, –2025.